



1- amaliy ish

Uglerod (IV)-oksid hosil qilish va uning xossalari bilan tanishish

1. Probirkaga bo'r yoki marmardan bir necha bo'lak soling va suyultirilgan xlorid kislota dan ozgina quying.
2. Probirka og'zini gaz o'tkazgich nayli tiqin bilan berkiting.
3. Nayning uchini 2—3 ml ohakli suv quyilgan probirkaga tushiring va sodir bo'layotgan hodisani kuzating.
4. Gaz o'tkazgich nayni distillangan suv quyilgan eritmaga tushiring.
Gazning distillangan suvdan o'tishi 1—2 minut davom etsin. Nayni chiqarib olib, olingan eritmaga bir necha tomchi ko'k lakmus eritmasidan tomizing.
5. Probirkaga suyultirilgan o'yuvchi natriy eritmasidan 2—3 ml quying va unga bir necha tomchi fenolftalein qo'shing. So'ngra eritma orqali gaz o'tkazing.
6. 10 g tuproq namunasidan olib, suv bilan aralashtiring. Aralashmani filtrlab, probirkaga quying:
 - a) tuproqdan 2—3 g probirkaga soling va ustiga suyultirilgan xlorid kislota quying. Nima kuzatiladi?
 - b) yuqorida olingan filtratga kumush nitratdan ozgina quying. Hosil bo'lgan oq rangli cho'kmani filtrlab oling. Cho'kmani ikkiga bo'lib, 1- qismiga ammiak yoki suyultirilgan xlorid kislota quying, 2- qismini qizdiring. Nima kuzatiladi?

TOPSHIRIQLAR:

1. Yuqorida bajarilgan tajribalardagi barcha reaksiyalar tenglamalarini yozing.
2. Bajarilgan tajribalar yuzasidan xulosa tayyorlang.